

QONUNCHILIK HUJJATLARI, TOPSHIRIQLAR HAMDA HUKUMAT QARORLARINING IJROSI YUZASIDAN “O‘ZAGROINSPEKSIYA”DA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR

Ijro intizomiga rioya qilish har bir boshlangan ishning muvaffaqiyatli amalga oshirishining garovidir. Shunday ekan, ushbu yo‘nalishda Agroinspeksiya vakolati doirasida belgilab berilgan chora-tadbirlarning natijadorligiga katta e‘tibor berilmoqda.

Xususan, 2025 yilning yanvar-noyabr oylarida **798** ta hujjat, shundan, O‘zbekiston Respublikasining **85** ta Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **133** ta farmon, farmoyishlari va **190** ta qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining **390** ta qarorlari ro‘yxatga olinib, ijrosiga mas‘ul xodimlar belgilangan va ushbu hujjatlar tarkibiy va hududiy bo‘linmalarga elektron shaklda yetkazilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 10 fevraldagi **PF-6166**-sonli Farmoni hamda 31-maydagi **PQ-5132**-sonli qaror talablaridan kelib chiqib, ijro intizomiga rioya qilinishi bo‘yicha **har haftaning dushanba va juma kuni** muhokama qilinib, o‘tkazilayotgan apparat yig‘ilishlari kengaytirilgan yig‘ilish hamda rayosat yig‘ilish bayonlari rasmiylashtirildi va har bir topshiriq ijrosi ta‘minlanishi nazoratga olinib kelinmoqda.

Xususan, hisobot oyida Inspeksiya boshlig‘ining o‘rinbosariga **har juma** kunlari axborotlar muhokama uchun kiritib borilmoqda.

Shuningdek, har dushanba kunlari rahbar huzurida muhokama qilib borildi va hisobot oyining o‘zida **4** ta apparat yig‘ilish bayonnomalari rasmiylashtirildi.

“**Ijro.gov.uz**” tizimida bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan tahliliy axborotlar hamda inspeksiyaga kelib tushgan qonunchilik hujjatlarini muddatidan oldin ijrosini ta‘minlash maqsadida har oyda **Kalendar-grafik jadvallari** ishlab chiqilmoqda va shu asosida ishlar kunlik tashkil etilib, ijrosi bo‘yicha **Vazirlar Mahkamasiga** har oyda axborot kiritilib kelinmoqda.

Ayniqsa, tizimda O‘zbekiston Respublikasining **qonunlari**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **Farmon, qaror, farmoyishlari**, Prezident Administratsiyasining **topshiriqlari** hamda Hukumatning **qaror va farmoyishlari** ijrosi qat’iy nazoratga olingan.

Inspeksiyaga kelib tushgan barcha qonunchilik hujjatlari bilan barcha tarkibiy tuzilmalar doimiy ravishda tanishtirib borilmoqda va shu jumladan, asosiy ijrochi sifatidagilari alohida nazoratga olingan.

Shu jumladan, “**Ijro.gov.uz**” tizim orqali kelib tushgan qonunchilik hujjatlari bilan ishlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 10-fevraldagi **PF-6166**-sonli Farmoni hamda 31 maydagi **PQ-5132**-sonli qaror talablaridan kelib chiqib, soha faoliyatiga tegishli har bitta qonunchilik hujjati ijrochilarga yetkazilib, nazorat rejalari ishlab chiqilib, ijrosi ta’minlab kelinmoqda.

Shuningdek, oktyabr oyi davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi **PF-117**-son farmon ijrosi yuzasidan **har hafta juma kunlari** keyingi haftada ijrosi ta’minlanadigan qonunchilik hujjatlari va oyning **25-sanasida** keyingi oyda ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan qonunchilik hujjatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Inspeksiya boshlig‘iga kiritib borildi.

Joriy yilning o‘tgan davri mobaynida qonunchilik hujjatlarini nazorat qilish tizimi orqali Inspeksiyaga **44** ta me’yoriy hujjat (*17 ta farmon, 14 ta qaror, 12 ta bayon va 1 ta farmoyish*) bo‘yicha **169** ta (*Prezident farmonlarining 89 ta, qarorlarining 47 ta, bayonlarining 29 ta topshiriqlari va 4 ta farmoyishlari*) bndlari kirim qilingan va o‘tgan yillardan ijroga o‘tganlari bilan birga, **63** ta hujjat bo‘yicha jami **222** ta topshiriq bo‘yicha **tegishli ishlar tashkil qilingan**.

Shu jumladan, **dekabr oyida** Inspeksiyaga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali **4** ta qonunchilik hujjati bo‘yicha **7** ta topshiriq, shu jumladan, **2** ta Prezident qarori (PQ-310, PF-375-son) bo‘yicha **4** ta topshiriq va **2** ta Farmoni (PF-243 va PF-109) bo‘yicha **3** ta topshiriq kelib tushdi hamda barcha topshiriqlar tegishli ijrochilarga chiqarilib, **nazorat rejalari ishlab chiqildi** va **tegishli ijrochilarga yo‘naltirildi**.

“Ijro.gov.uz” tizimida “O‘zagroinspeksiya” ning ish yurituvda bo‘lgan **dekabr oyi** muddatli **15** ta qonunchilik hujjati bo‘yicha **29** ta topshiriq ijrosi yuzasidan ishlar tashkil qilinib, amalga oshirilgan ishlar natijasida **29** ta topshiriqning barchasi (**PF-117, PF-95, PF-87, PF-157, PF-109, PF-130**-sonli farmonlari, **PQ-421, PQ-287, PQ-280**-sonli qarorlari, Prezidentning **36-2025, 55-2025, 30-2025, 1403**-sonli bayonlari hamda **60**-sonli farmoyishi) bo‘yicha axborotlar tegishli davlat organlariga kiritilib, belgilangan tartibda muddatidan oldin nazoratdan yechilishi ta’minlandi.

2025-yil 31-dekabr holatiga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali **46** ta Prezident hujjatlari (**18 ta** farmon, **20 ta** qaror va **8 ta** bayon) bo'yicha **121 ta** (Farmonlar ijrosi yuzasidan **59 ta**, qarorlar **51 ta** va bayonlar **11 ta**) topshiriqlari bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyishlari va bayonlari bilan bir qatorda “**Ijro.gov.uz**” tizimi orqali kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi **Prezident Administratsiyasi rahbarining, Vazirlar Mahkamasi** hamda **Hukumat komissiyasining** topshiriqlari ijrosi ham nazoratga olingan.

Tizim orqali Vazirlar Mahkamasining **4 ta** hujjati (**766,772,792,824**-sonli qarorlari) bo'yicha **34 ta**, Prezident Administratsiyasi rahbarining **1 ta** hujjati (**PA 1-20643** topshirig'i) bo'yicha **1 ta** topshiriq kelib tushdi va ijroga qabul qilindi.

O'tgan davrda dekabr oyi ijro muddatli **Vazirlar Mahkamasining 3 ta** hamda **Hukumat komissiyasining 1 ta** topshiriqlari ijrosi belgilangan muddatlarda ta'minlandi.

Bugungi kunda Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Hukumat komissiyasining **hujjatlari bo'yicha muddati o'tgan topshiriqlar mavjud emas.**

Shuningdek, tizimdagi qonunchilik hujjatlari bo'yicha keyingi oyda ham topshiriqlar ijrosini qat'iy ta'minlash maqsadida 2025 yil 24 dekabrda **01/2-7-272**-sonli xat bilan 2025 yil **yanvar oyida** “Ijro.gov.uz” tizimida bajarilishi lozim bo'lgan nazoratdagi topshiriqlarni bajarishning kunlik “**Kalendar-grafik**” va ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha “**Yo'l xaritasi**” Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilindi.

A.Vaxabov, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i